

**TALABALARGA XITOIY TILINI O'QITISHDA HSK 5 (C1) DARAJADA  
QO'LLANILADIGAN SINONIMLARNI O'QITISH METODIKASI**  
(如何/怎么; 耐心/耐烦)

**Dilshoda Mamatova**

Samarqand davlat chet tillari instituti, Yaqin sharq tillari kafedrasini o'qituvchisi  
Tel: +998972885603

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada hozirgi kunda xitoy tili o'rganuvchilar soni yildan-yilga o'sib borayotganini hisobga olgan holda, og'zaki va yozma nutqda sinonimlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar kuzatilayotganligi sababli bu mavzuga atroflicha to'xtalib o'tilmoqda. Mazkur maqolada talabalar til bilish darajasi imtihonlari va ularga tayyorlanish jarayonlarida HSK 5 darajasidagi o'qish ko'nikmasining birinchi bo'limidagi (46-60 savollar) sinonimlar hamda milliy chet til bilish darajasini aniqlovchi imtihonning uchinchi bo'limi leksik va grammatik kompetensiyalar bo'limida uchraydigan qiyinchiliklarini qanday qilib o'qitish metodikasi hamda sinonimlarni to'g'ri qo'llay olish bo'yicha qisqacha mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦, sinonimik qator, xitoy tili

**АННОТАЦИЯ**

*В статье подробно рассматривается данная тема, так как существует множество проблем, связанных с употреблением синонимов в устной и письменной речи, учитывая, что количество изучающих китайский язык в настоящее время увеличивается с каждым годом». В этой статье учащиеся узнают о синонимах в первой части HSK 5 уровня навыков чтения (вопросы 46-60) и третьей части национального теста на знание иностранного языка в разделе лексико-грамматических компетенций. учить возникающим трудностям и правильному употреблению синонимов.*

**Ключевые слова:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦, синонимический ряд, китайский язык

**ABSTRACT**

*The article focuses on this topic in detail, as there are many problems associated with the use of synonyms in oral and written speech, given that the number of Chinese language learners is currently increasing year by year. ' In this article, students will learn about synonyms in the first part of HSK 5 level reading skills*

(questions 46-60) and the third part of the national foreign language proficiency test in the section of lexical and grammatical competencies, a brief review of how to teach the difficulties encountered and the correct use of synonyms.

**Keywords:** 如何, 怎么, 耐心, 耐烦 synonymous series, Chinese

## **KIRISH**

Sinonim soʻzlar (同义词 tóngyìcí) yoki maʼnodosh soʻzlar bir xil yoki bir-biriga yaqin maʼnolarini anglatuvchi, lekin shaklan har xil boʻlgan soʻzlardir. Sinonimlar semantik jihatdan yaqin, oʻxshash, parallel hosil boʻldigan soʻzlardir. Maʼnoviy yaqinligiga ega boʻlishiga qaramay ular nozik semantik jihatlar orqali ham bir-biridan farqlanadi. Sinonimlar tilning boyligini koʻrsatadi. Tilda sinonimlarning koʻligi fikrni, tuygʻularni ifoda etishda keng imkoniyat tugʻdiradi. Nutqni esa egiluvchan va ifodali qiladi. [6,122]

Sinonimlarning kelib chiqishiga har xil sabablar mavjud. Xitoy tilida sinonimlarning bir nechta kelib chiqish sabablarini koʻrish mumkin. Koʻpgina leksik sinonimlar tilde nozik maʼnoviy farqlarni yetkazib berish uchun ham kerakdir, shu tariqa ular hayotga tatbiq qilingan. Qadimiy venyan va yangi bayxua tillari ham sinonimlarning paydo boʻlishining asosiy sabablaridan biridir. Yakka sinonimlarning maʼlum miqdorda koʻpayishiga umumxalq putunxua tilida shevaga oid soʻzlarning vujudga kelganligidir. Shu bilan birga boshqa tillarda oʻzlashgan soʻzlarning kirib kelishi ham sinonimlarning paydo boʻlishiga katta rol oʻynaydi. [5,170]

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ishda 刘畅, 鲁江 mualliflarining “标准教程 HSK 5” darsligidagi koʻpgina sinonimlardan, 李禄兴 ning “新 HSK 5000 词分级词典 (四 - 五级)” qoʻllanmasidan, “汉语近义词辨析” oʻquv qoʻllanmasidagi HSK 5 darajasiga oid sinonimlar taʼriflaridan, “1700 对近义词语用法对比” lugʻatlari hamda bir nechta mavzuga oid ilmiy maqolalardan foydalindi.

“1700 对近义词语用法对比” yaʼni “1700 sinonimlar taqqoslab qoʻllash” nomli lugʻatda har bir soʻzga alohida taʼrif berilgan, sinonim soʻzlar oʻrtasidagi farqlar, oʻxshashliklar, qaysi soʻz va birikmalar bilan qoʻllanila olishiga oid maʼlumotlar aks etgan. “汉语近义词辨析” oʻquv qoʻllanmasidagi sinonimik qator kengroq boʻlib, misollar bilan yoritib berish talabalarni oʻqitishda qulayliklarga egadir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy tilida HSK 5 darajasida sinonimlar juda ko'p miqdorni tashkil qiladi. Biz quyida bir nechtasini ko'rib o'tamiz:

### 如何-怎么 sinonimik qatori

“如何”- olmosh so'z turkumiga oid so'z bo'lib, o'zbek tilida “qanday, qanday qilib” deb tarjima qilinadi. Mazkur so'z xitoy tilida HSK 5 darajasida 怎么, 怎么样 so'zlari bilan sinonim bo'la oladi.

“如何”- ish-harakatning qay yo'sinda amalga oshishini so'rashda hamda gap oxirida kelib, voqea-hodisa haqida fikr so'ralganda yoki holat haqida so'z ketganida qo'llaniladi:

1. 你最近身体情况如何?
2. 我们希望由你来负责解决这个问题, 如何?
3. “80后”们月收入情况如何?
4. 如何才能快速提高汉语水平?
5. 你来负责这个晚会, 如何?
6. 我们如何才能让他满意?
7. 你要想好如何安排今后的生活。[2, 486]
8. 我们明天举行会议, 讨论这个问题该如何解决。
9. 评委们叫第一对夫妻说说他俩是如何恩爱的。
10. 我不清楚他是如何解决这个问题的。

“如何” va “怎么” olmoshlarining har ikkalasi ham usulni so'rashda qo'llaniladi:

只有知道如何/怎么停止的人, 才知道如何/怎么高速前进。[1, 6] Ushbu misolda “如何” va “怎么” olmoshlarining har ikkalasini qo'llash mumkin, bu ularning umumiy xususiyati, o'xshash tomonidir. Quyida “如何” va “怎么” olmoshlarining farqlarini ko'rib chiqamiz:

1. “如何” ko'proq kitobiy, “怎么” so'zlashuv uslubda qo'llaniladi.  
该如何爱护我们的地球? (kitobiy uslub)  
你今天是怎么来的? (so'zlashuv uslub)
2. “如何” voqea-hodisalarning sababini so'rash uchun qo'llanilmaydi.  
“怎么” sababni so'rash uchun qo'llaniladi:

今天怎么这么冷？(sabab so'rolmoqda, ushbu gapda “怎么”ning o'rniga “如何”ni qo'llana olmaydi)

3. “如何” gap oxirida kelib, vaziyatni haqida so'rash yoki fikrni umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi:

最近身体如何？

“怎么” gap boshida kelib, hayratlanish ma'nosini beradi:

怎么，你不认识我了？！

Quyida “怎么” va “如何” sinonimik birliklarni qaysi o'rinda qo'llash bo'yicha misollar keltirilgan:

1. 他向经理叙述了自己是**如何/怎么**解决这问题的。
2. 你**怎么**这么不耐烦？
3. 谁知道他们是**怎么**吵起来的？
4. 听说你去电台工作了？情况**如何**？[1,6]

Shuningdek, “如何” olmoshi “怎样” olmoshi bilan, “怎么” so'roq olmoshi “怎么样” hamda “为什么” kabi so'roq olmoshlari bilan ham sinonim bo'la oladi, mavzu doirasidan chiqib ketmaslik uchun bu sinonimlarga atroflicha to'xtalib o'tmadik.

Yuqoridagi sinonimlarni talabalarga o'rgatish jarayonida har bir farqlariga alohida urg'u berib, misollar va testlar orqali tushuntirish samarali natija beradi.

### **耐心-耐烦 sinonimik qatori**

耐烦 - chidamli - sifat so'z turkumiga oid bo'lib, ko'proq inkor shakldagi gaplarda qo'llaniladi, qiyinchilikdan qo'rqqmaslik, shoshmaslik ma'nolarini anglatadi, “不” inkor shakli bilan qo'llaniladi, “没（有）” bilan qo'llanila olmaydi.

耐心 – chidam, chidamli ham ot, ham sifat so'z turkumiga tegishli, tasdiq shaklda ham, inkor shaklda ham qo'llaniladi, “不” hamda “没（有）” inkor shakllarining har ikkisi bilan ham qo'llanila oladi. “耐心” gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniadi, “耐烦” da bunday qo'llanilish yo'q.

“耐心” quyidagi gaplarda sifat so'z turkumida qo'llanilgan:

1. 我们学得很慢，但老师对我们很耐心。

2. 服务员耐心的服务态度让顾客很满意。
3. 他给我们耐心地解释了这一切。
4. 在他耐心的教育下，他改正了错误。
5. 老师一遍一遍教得很耐心。

“耐心” quyidagi gaplarda ot so'z turkumida qo'llanilgan:

1. 他缺乏耐心，爱着急。
2. 耐心不够是他最大的缺点。
3. 对孩子，他很耐心。
4. 你怎么一点儿耐心也没有？

Quyidagi jadvalda 耐心-耐烦 sinonimlarining qaysi so'zlar bilan birikma hosil qila olishi yoki birga qo'llanilmasligi haqida ma'lumot berilgan:

	有~	没有~	不~	很~	~地听	~帮助别人	~地学
耐烦	×	×	√	×	×	×	×
耐心	√	√	√	√	√	√	√

耐心 va 耐烦 so'zlarining gaplarda qo'llanilishiga e'tibor qarating:

1. 他还没有说完呢，你就不耐烦听了。(他还没有说完呢，你就不耐心听了 - mazkur gapda har ikkala so'z ham almashilinib qo'llanila oladi)
2. 你怎么那么不耐烦呢? (你怎么那么不耐心呢? - bu o'rinda ham ikkala gap ma'nodosh hisoblanadi)
3. 我已经等得不耐烦了。(我已经等得不耐心了 gapi grammatik qoidalarga to'g'ri kelsa-da, gap mazmun jihatidan xato bo'ladi, bu gap ma'nosini 我已经等得没耐心了 bera oladi)
4. 他很耐心地听着大家的发言。(bu gapda ham 耐心 o'rniga 耐烦 ni qo'llab bo'lmaydi)
5. 有不懂的问题问王老师时，他总是耐心地给我们讲。(bu gapda sinonimlar o'zaro almashilinib qo'llanila olmaydi)
6. 他没有耐心无论学习什么，都是三天打鱼，两天晒网。[4,875]

Talabalarga 耐心 va 耐烦 sinonimlarini o'zaro almashinilib qo'llay olish holatlari va grammatik jihatdan farqli tomonlarini to'g'ri, aniq asoslar bilan tushuntirib o'tilishi lozim.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Chet tillarini o'qitish metodikasida talabalarga sinonimlarni o'qitish jarayonida yetarlicha muammolar kelib chiqadi. Natijada so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilganda, o'qish ko'nikmasidagi mashq va testlarda ham, yozish ko'nikmasi qismidagi insho yozish va so'zlarni gap shaklida to'g'ri tartiblash mashqlarida ham so'z qo'llash bilan bogliq bo'lgan nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Gaplar leksik-grammatik jihatdan xato bo'ladi. Shuning uchun, talabalarga sinonimlarni o'qitish jarayonida har bir so'zga hamda ularning sinonimlariga batafsil to'xtalib o'tish lozim. Har bir sinonim so'z qaysi holatlar qo'llanishi, qaysi so'zlar bilan turg'un birikma hosil qilishini dars berish jarayonida ta'kidlab o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikr isboti sifatida har bir grammatik qoidalar ko'plab misollar bilan isbotlanishi, sinonim so'zlarning turli uslubdagi matnlarda qo'llanishi bilan bog'liq gaplar keltirilishi kerak, shundagina talabalarda sinonim so'zlar orasidagi farqni eslab qolish imkoniyati kengroq bo'ladi. Xitoy tilida o'qish ko'nikmasidagi testlar hamda mavzuga oid mashqlar bajarish, yangi o'rganilgan sinonimlar ishtirokida gaplar tuzish, matnlar yozish talabalarining eslab qolish ko'nikmasini rivojlantirishga sababchi bo'ladi. Xitoy tilini o'qitish metodikasida muntazam ravishda ushbu usullardan foydalanish o'z samarasini beradi.

### **REFERENCES**

1. 刘畅, 鲁江 标准教程 HSK 5, 北京语言大学出版社, 183 页。
2. 李禄兴 新 HSK 5000 词分级词典 (四-五级), 北京语言大学出版社, 2014. 662 页。
3. 汉语近义词辨析, 北京语言大学出版社, 2011. 291 页。
4. 1700 对近义词语用法对比, 北京语言大学出版社, 2009. 1641 页。
5. Sultonova L.A. "Xitoy tili leksikologiyasi", T-2015., 170 b.
6. Gorelov V.I. Leksikologiya sovremennogo kitayskogo yazika- M.,1984.- C.122
7. <https://jinyifanyi.bmcx.com/>
8. [https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95\\_\\_jinyifanyi/](https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95__jinyifanyi/)